

7-10-2019

TRADITIONAL HANDICRAFT OF THE FERGANA VALLEY (ON THE EXAMPLE OF KNIVES)

Abduqaxor Mahmudov

Namangan institute of engineering and Technology , Assistant of the deparment "Social sciences".

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Mahmudov, Abduqaxor (2019) "TRADITIONAL HANDICRAFT OF THE FERGANA VALLEY (ON THE EXAMPLE OF KNIVES)," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 3 , Article 16.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss3/16>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

TRADITIONAL HANDICRAFT OF THE FERGANA VALLEY (ON THE EXAMPLE OF KNIVES)

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

FARG'ONA VODIYSINING AN'ANAVIY HUNARMANDCHILIGI (PICHQCHILIK MISOLIDA)

Namangan muhandislik texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi
Абдуқаҳор Маҳмудов

Аннотация: Ushbu maqolada Farg'ona vodiysi an'anaviy hunarmandchiligining pichoqchilik sohasi yoritilgan. Shuningdek pichoqning paydo bo'lishi, pichoqchilik markazlari (Shahrixon, Qo'qon, Chust), pichoq turlari hamda Farg'ona vodiysidagi pichoqchu hunarmandlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Калит so'zlar va iboralar: Farg'ona vodiysi, pichoqchilik, pichoqchilik markazlari, pichoq tarixi, pichoq turlar, an'anaviy hunarmandchilik, pichoqsoz ustalar.

ТРАДИЦИОННОЕ РЕМЕСЛЕННИЧЕСТВО ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (НА ПРИМЕРЕ ИЗГОТОВЛЕНИЯ НОЖЕЙ)

Намангаский инженерно-технологический Институт, ассистент кафедры
«общественных наук»
Абдуқаҳор Маҳмудов

Аннотация: Данная статья посвящена проблеме изучения традиционного ремесла в Ферганской долине. Автор статьи уделяет особое внимание на историю возникновения ремесла изготовления ножей, центры ремесла (Шахрихон, Коканд и Чуст), выдающиеся мастера этого ремесла и основные виды ножей в Ферганской долине.

Ключевые слова и фразы: Ферганская долина, ножи, ножи, история клинков, экскурсии на ножах, традиционные ремесла, ножевые мастера.

TRADITIONAL HANDICRAFT OF THE FERGANA VALLEY (ON THE EXAMPLE OF KNIVES)

Namangan institute of engineering and Technology ,
Abduqaxor Mahmudov Assistant of the department
"Social sciences".

Abstract: The article is devoted to history the hand-made knife-making in Fergana valley. The author has paid attention to the early history of this handicraft, the regional centers for knife-making (Shahrikhon, Qo'qon and Chust), the outstanding masters of this art and the different types of knives in Fergana valley.

Key words and phrases: Fergana valley, knives, knives, blade history, knife tours, traditional handicraft, knife masters

O'zbek xalq amaliy san'ati turfa, rang-barang va etnografik jihatdan o'ziga xosdir. O'zbeklarning boy madaniy merosi va xalq amaliy hunarmandchilik an'alarini chuqur tadqiq etishga keng imkoniyatlar mustaqillik davridan boshlandi desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Biz hamma vaqt keng aholi qatlamlarining ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahra olishiga imkon berib kelgan madaniyat sarchashmalariga avaylab munosabatda bo'lishni o'rganib olishimiz lozim. O'zbekistonda musiqa, tasviriy, monumental va amaliy san'at sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishilganligi tasodifiy emas. Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni ma'naviy tarbiyalashning asosi bo'lmog'i kerak"[1: 150].

Shunga ko'ra, hunarmandchilikni rivojlantirish yo'lidagi mavjud muammo va to'siqlarni tizimli bartaraf etish, O'zbekiston xalqlarining boy madaniy me'rosi va tarixiy an'alarini to'liq saqlab qolish va yanada boyitish, hunarmandchilikni keng miqiyosda qo'llab-quvvatlash hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanishga aholini, ayniqsa, yoshlar, ayollar va va kam ta'minlangan oilalarni jalb qilishga rag'batlantirish maqsadida 2017 yilning 17 noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi[2: 2].

Xalq amaliy san'atini hozirda mavjud bo'lgan an'anaviy xalq hunarmandchilik markazlarini, ustalarni, buyumlarni, badiiy an'alarni etnologik jihatdan qayd qilish, ularni o'rganish masalasi, bugun nafaqat O'zbekiston, balki xalqaro hamjamiyat doirasida dolzarbligi sezilmoqda. Shuning uchun bugungi kunda an'anaviy hunarmandchilikni ilmiy tadqiq etish, uning tarixi, ayrim markaz va hududlar hunarmandchiligining badiiy va texnologik xususiyatlari, hamda ularni etnologik manba sifatida chuqur o'rganish, xalq ustalari va yo'qolib borayotgan hunarmandchilik an'alarini aniqlash va shu asosda uning betakror an'alarini tiklash va rivojlantirish jarayoni dolzarb vazifalardan biridir.

Farg'ona vodiysi nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda yirik etnomuloqat va etnogenetik mintaqalardan biri hisoblanib, bu yerda hunarmandchilikning rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechgan. Farg'ona vodiysida milliy hunarmandchilikning to'quvchilik, kulolchilik, zargarlik, ko'nchilik, yog'ochga ishlov berish, temirchilik, pichoqchilik turlari rivojlangan. Ayniqsa, ushbu hunarmandchilik turlarining vodiya xos taraqqiyot yo'li bu erda alohida, lokal madaniyat shakllanganligidan dalolat beradi.

Farg'ona vodiysi hunarmandchilik ishlab chiqarishida maxsus mutaxassisliklar turli regionlar bo'yicha rivojlangan. Jumladan, Marg'ilon, Xo'jand, Qo'qon ipak ishlab chiqarish, Beshariq va Qo'qon matoga ishlov berish, Namangan teri-charm mahsulotlari

ishlab chiqarish, kulolchilik esa asosan Rishton va O'ratepada, gilamlar, paloslar Oyim, Dardak qishlog'ida, abr matolari Marg'ilonda, Chust va Shahrixon esa o'zining mashhur pichoqlari bilan shuhrat qozongan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Marg'ilon aholisi ipak, ipak tolasi va atlas matolar, jun va qog'oz matolar ishlab chiqarish bilan ham mashhur bo'lgan. Eng ahamiyatli tomoni ham shundaki, Marg'ilonda tashkil etilgan sanoat korxonalarini ishchilarining asosiy qismini ham mahalliy aholi vakillari tashkil etgan.

Hunarmandchilikning o'ziga xos jihati shu ediki, ular ma'lum uyushmalarga a'zo bo'lib, o'zlarining kasbdoshlari manfaatlarini doimo himoya qilib turgan. Bundan tashqari, hunarmandchilik sohalari bevosita uy-ro'zg'or xo'jaligi bilan bog'liq bo'lib, ko'plab hunarmandlar asosiy kasbidan tashqari dehqonchilik, bog'dorchilik bilan ham shug'ullanishib kelishgan. Shuningdek, vodiy sharoitida uy hunarmandchiligi ham rivojlangan. Bunda ip yigirish, to'qish va kigiz bosish kabi kasblar alohida ajralib turgan.

Farg'ona vodiysi an'anaviy xunarmandchiligida metall buyumlar tayyorlash sohasi temirchilik, misgarlik, zargarlik va tunikasozlik kabi tarmoqlar bo'lingan. O'z navbatida bu tarmoqlarning ba'zilarida ichida chuqur mehnat taqsimoti yuz berib, yanada tor yo'nalishdagi tarmoqlarni yuzaga kelishi yuz berdi. Masalan temirchilikda pichoqchilik, qulfsozlik, taqachilik kabi xunar tarmoqlari ajralib chiqqan. Umuman XX asrning boshlarida metalga ishlov berishning 19 ta turi mavjud bo'lgan. Vodiydagi ba'zi xunarmandchilik markazlari o'zlarining yuqori sifatli mahsulotlari bilan mashhur bo'lgan. Jumladan Qo'qon shahri yaqinidagi Yangiqo'rg'on, Qo'shtegirmon temirchilari ketmon, Kosonsoy temirchilari cho'yan buyumlar, Chust, Shahrixon, Qorasuv temirchilari pichoq yasash bilan mashhur bo'lgan[3: 149].

Pichoq insoniyatning eng qadimiy kundalik anjomlaridan biri bo'lib, so'ngi paleolit davrida ixtiro qilingan. Pichoqdan dastlab ov quroli va mehnat quroli sifatida foydalanilgan. Azaldan temirchilikning mustaqil tarmog'i bo'lgan pichoqchilik Farg'ona vodiysida taraqqiy etib, Chust, Shahrixon, Qo'qon kabi markazlari vujudga keldi[4: 42]. Vodiydagi ko'xna hunarlar qatorida pichoqchilik ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Qadimda pichoqchilik qurolsozlikning eng keng tarqalgan turi bo'lgani uchun deyarli har bir shaharlarda faoliyat ko'rsatib kelgan. Ba'zi joylarda esa bu kasb san'at darajasiga ko'tarilib, o'ziga xos maktablari shakillangan. Farg'ona vodiysida Qo'qon, Chust, Shahrixon, Qorasuv maktablari mashhur bo'lgan. Pichoqlar xom ashyosi, ko'rinishi, tayyorlash uslublari bilan bir-biridan farq qiladi. Pichoqlarning asosiy qismi "Damashqi", "Isfahoniy", "Farangiy", "O'rusiy", "Turkona" singari po'lat xom ashyolaridan tayyorlanib, shakli va tig'iga ko'ra ajralib turgan. Ya'ni, bir tomoni tig' "Yakqadam", ikki tomoni tig' bo'lgan "Dudama", buklamali "Qo'shpichoq", o'roq kabi qayrilib tig'i ichki tomonda bo'lgan "O'roqi" turlariga, ishlatilishiga ko'ra "Ro'zg'ori", "Oshpichoq", "Chopqipichoq", "Sallohi" qassoblar pichog'i, "Mardona" erkaklar beliga

osib yuradigan, qilichdan kichikroq yasalgan, tirnoq oladigan “Do’kot”, qamish qalamlarni uchini chiqaradigan “Qalamtarosh”, qovun so’yadigan “Harbuzi”, suyak tozalashga chiqarilgan “Chol pichoq” singari turlariga bo’lingan bo’lib har bir pichoqning o’zining vazifasi va qulay xislatlari bilan e’tibor qozongan. Andijon maktabiga tegishli “stol bargi”, “qaychi pichoq”, “avrador pichoq” (Arvador pichoq – pichoqning yarim oq toq rangda bo’ladi) kabi pichoqlar huddi xanjarga o’xshash uzun bo’lib, ba’zilari toshlar bilan bezalgan bo’ladi[5: 13].

Qorasuv va Shahrixon milliy pichoqlari o’ta keskirliги, betakror shakli, o’ziga xos badiiy bezagi va uslubi bilan Chust, Qo’qon, Xiva kabi Respublikamizdagi boshqa pichoqchilik maktablari qatorida turadi. Ko’p asrlik tarixga ega Shahrixon pichoqsozligi misli ko’rilmagan rivojlanish pog’onasiga yetdi. Shahrixon pichoqlari dunyoning turli burchaklarida mavjud. Masalan, usta Rahmatxo’ja Alixo’jaev va shogirdlari yasagan pichoqlar Yevropada ham munosib baholangan, xalqaro sifat sertifikatini bilan taqdirlangan. Har yili ustaning oldiga o’nlab kishilar farzandlarini shogirdlikka olib keladi. Rahmatxo’ja aka bolalarini mahsus “imtixon” asosida qabul qiladi. Yillar davomida o’z shogirdlariga kasb sirlarini qunt bilan o’rgatadi[6: 21]. Shuningdek aka-uka No’monjon, Rahmatxo’ja va Polvonxo’ja Alixo’jayevlar, Sodiqjon Ne’matov kabi ustalar yasagan pichoqlar qadimiy an’analarimizning davomiyligi, o’ziga xos rivojining yuksak namunasi va a’maliy san’at asari sifatida xalqaro ko’rgazmalardan o’rin olmoqda[7: 34].

Shahrixon - ko’hna va betakror xunarmandchilik maskanlaridandir. Viloyat hunarmandlarining qariyb yarmi shu tumanda istiqomad qiladi. Ayniqsa, pichoqchilikda shahrixonliklarga teng keladigani kamdan-kam topiladi. Shahrixonda bir necha yuz yil ilgari tarkib topgan hunarmandchilik turlaridan biri pichoqchilik hisoblanadi. Pichoqchilik ustalari sulolalaridan biri 1730- yilda tug’ilgan Ismoilxo’jadan boshlanib, hozir bu sulolaning ettinchi avlodi bobolari kasbini davom ettirmoqda. Peshqadam temirchi ustalar milliy pichoqchilikni san’at darajasiga ko’tarib kelmoqdalar.

Shahrixon pichoqlari dunyoning turli burchaklarida mavjud. Masalan, usta Rahmatxo’ja Alixo’jaev va shogirdlari yasagan pichoqlar Yevropada ham munosib baholangan, xalqaro sifat sertifikatini bilan taqdirlangan. Har yili ustaning oldiga o’nlab kishilar farzandlarini shogirdlikka olib keladi. Rahmatxo’ja aka bolalarini mahsus “imtixon” asosida qabul qiladi. Yillar davomida o’z shogirdlariga kasb sirlarini qunt bilan o’rgatadi

Shahrixon va uning atrofidagi xududlarda yashaydigan qirq nafardan ziyod pichoqchilarning ustozlari Rahmatxo’ja Alixo’jaevdir. Ustaning avlodi XIX asrning ikkinchi yarmida o’z davrining mohir temirchisi, pichoqchi ustasi sifatida dong taratgan Usta Ubaydullo eshon Musaxo’jaev bo’lgan. U 1874- yilda tug’ilib, etmish uch yil umr ko’rgan. El-yurtda mohir pichoqsoz usta, qo’li engil shifokor sifatida ezgu iz

qoldirib, 1947 yilda vafot etgan. Pichoqchilik hunarini san'at darajasiga olib chiqqan iste'dodli hunarmand bo'lgan. Pichoq ishqibozlari boshqa shahar, qishloqlardan Shahrixonga kelib, unga buyurtma berishgan.

Ubaydullo eshon jarroh tabib ham bo'lgan. Xalq tabobatini tan olmagan, uni sanitariyaga zid, bid'at, xurofat deb biluvchi sobiq sovet hokimiyati Ubaydullo eshon tabibni ta'qib ostiga olgan. Ta'qiblarga qaramasdan, shifo tilab kelgan bemorlarni davolayvergani uchun uni 1936 yilda "sovet kishilariga zarar etkazuvchi zararkunanda, xurofotchi tabib" sifatida qamoqqa olishgan. Ubaydullo eshonning pichoqchilik hunarini o'g'li Alixo'ja Ubaydullaev davom ettirgan. U yasagan chiroyli bejirim pichoqlar jahonning ko'pgina muzeylarida, jumladan, Moskvada, Leningrad (Sankt-Peterburg) shaharlaridagi mashhur muzeylarda hozir ham saqlanmoqda.

Usta Alixo'jani yog'dirgan ikkinchi jahon urushi jangohlarida ham bo'lgan. Minglab o'zbek yigitlari qatori u ham urushga majburan yuborildi. Avvaliga minomyotchi, keyin razvedkachi bo'lib xizmat qildi. "Qizil yulduz", "Shuhrat" ordenlari, "Jasurligi uchun", "A'lochi razvedkachi" va boshqa medallar, sakkiz marta oliy bosh qo'mondon tashakkurnomasi bilan taqdirlangan. Usta Alitoy urushni 1945-yili Chexoslovakiyaning Praga shahrida yakunlab, g'alaba bilan qaytgan. Urushdan kelgan kundan boshlab, to umrining oxirigacha (1979- yilda vafot etgan) pichoqchilik hunarini davom ettirdi.

Usta Alitoyning o'g'li Rahmatxo'jani bugungi kunda nafaqat Shahrixon temirchi-pichoqchilarning sardori deyish mumkin! U Andijon viloyat "Hunarmand" uyushmasi ijodiy guruhining a'zosi.

Rahmatxo'ja Alixo'jayev yasagan pichoqlar o'tgan asrning 80-yillaridan beri viloyat, respublika, xalqaro miqiyosda o'tkazilgan xalq amaliy ko'rgazmalarida o'zbek amaliy san'ati na'munasi sifatida namoyish etilib kelinmoqda. Germaniya, AQSH, Hindiston, Angliya kabi o'nlab mamlakatlarda tashkil etilgan ko'rgazmalarda munosib o'rinlarni egallagan. Xalqaro mukofot hisoblangan " WQC Intemftional Star Award" ga munosib topilgan.

Shahrixonning yana bir mashhur hunarmandlaridan biri pichoqchi, zargar, kandakor usta Sodiqjon Ne'matov hisoblanadi. Bu kishi 1996-yilda Respublika tadbirkorlarining "Tashabbus" ko'rik tanlovida qatnashib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mukofotiga sazovor bo'lgan. Bundan tashqari Bobur nomidagi xalqaro jamg'arma tomonidan xalqaro Bobur mukofotiga loyiq topilgan.

Qo'qon pichoqchilik maktabida XIX asrda Bobonazar pichoqchi, Qosim yaroqsoz, usta Mirxoliq Farang, Muhammadjon pichoqchi Aliboy o'g'li kabi ustalari bilan mashhur bo'lgan. XX asr boshlarida qo'qonlik usta Isxoq Qosim va usta Mahmud Muhammad-jonovlar tomonidan tayyorlangan pichoqlar Parij va Jenevada bo'lib o'tgan xalqaro ko'rgazmalarda kumush va bronza medallari bilan taqdirlangan.

Pichoqchilik markazlaridan yana biri Chust shahridir. Chust ustalari yasagan

pichoqlar boshqa pichoqlardan keskin farq qiladi. Pichoqning dasta hamda tig'i uzunroq, tig'ining uchi tashqariga, dastasining uchi ichkariga tomon qayrilgan bo'ladi. Chust shaharlarida hali ham pichoqchilik o'z an'alarini davom ettirib kelmoqda. Farg'ona vodiysida Chust asosiy pichoq tayyorlash vatani bo'lib, ular boshqa pichoqchilik maktablaridan mutlaqo farq qiladi. Chust pichoqlari qat'iyligi, shaklining soddaligi hamda siqirligi bilan mashx. ur. 1932 yilda Chustda sobiq "Qizil kuch" nomli artel tuzildi. Ba'zi og'ir qo'l mehnatlari stanoklarda bajariladigan bo'lindi. Oldin ustalar pichoq tig'larini yasash uchun eski arracha hamda podshipniklardan foydalanganlar. Pichoq dastalari esa hayvon shoxlaridan va yog'ochlardan yasalgan[8: 24]. E'tiborli jihati bu qadimiy hunarmandchilik an'analari bugungi kunda yangi usul va zamonaviy andozalar bilan boyigan xolda taraqqiy etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xalq ustalari avloddan-avlodga o'tib ardoqlanib kelinayotgan pichoqchilik san'ati ijodiy tajribalari, mohirlik sirlari, otadan bolaga, bobodan nevaraga meros bo'lib kelyapti. Ustalarimiz butun bir tajribalarga asoslanib, betakror uslubdagi pichoq namunalari yaratib kelmoqdalar. Farg'ona vodiysi hunarmandlari hunarmandchilik an'alarini davom ettirmoqdalar. Shuningdek hunarmandchilik amaliy san'astida "ustoz-shogirt" tizimi hali-hamon o'z nufuzini yo'qotgani yo'q.

References:

1. Karimov I. O'zbekistan XXI asr busagasida. Xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va taradiyot kafolatlari. - T.: 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Xunarmandchilikni yanada rivojlantirish va xunarmandlarni har tomonlama qo'llab - quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida". // Xalq so'zi. 2017 yil 21 no'yabr № 234 (6928) soni.
3. Esonov Z. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi a'anaviy xunarmandchiligi// Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda xalqaro ilmiy konferensiya materiallari, Farg'ona, 2019.
4. Xolmurotov B. Pichoq ramzi // Moziydan sado, 2013. № 4(60) .
5. Nosirova Z. Farg'ona vodiysi badiiy xunarmandchiligi // Moziydan sado, 2014. № (62)
6. Ergashev F. Turkistonda hunarmandchilik va pillachilik. - Jamiyat va boshqaruv jurnali, 2004-yil, 3-son.
7. YUsupov D. Andijon amaliy va tasviriy san'atida milliy qadryatlar // Moziydan sado, 2004. № 4(24) .
8. Zoxidov N. M. "Yog'ochsozlik va metal bilan ishlash" (o'quv qo'llamna). – T.: "Voriz", 2007.
9. Bugungi Andijon. – T.: O'zbekistan, 2006. B. 37-38